

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.M.Bozorova</b>	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
<b>L.S.Sultonova</b>	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
<b>U.K.Kurbanova</b>	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili .....	124
<b>M.H.Mo'minova</b>	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni .....	128
<b>K.J.Ochilova</b>	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili .....	132
<b>B.X.Karimov</b>	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
<b>R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova</b>	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim .....	141
<b>P.X.Qaxorov</b>	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi .....	147
<b>U.M.Paxriddinov</b>	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	152
<b>Z.B.G'ulomov</b>	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
<b>A.A.Tojiddinov</b>	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari .....	164
<b>G.A.Qamariddinova</b>	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili .....	172
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
<b>Z.I.Narziyev</b>	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba .....	185
<b>M.M.Mamasaliyev</b>	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

## SIYOSAT

---

<b>T.A.Azizov</b>	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari .....	193
<b>S.U.Yuldashev</b>	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionalallashtirish .....	197
<b>O'.N.Ahmedova</b>	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi .....	201
<b>X.R.Ikramov</b>	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati .....	205
<b>A.M.Abjalov</b>	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	210
<b>G.B.Umarova, A.Nurullaeva</b>	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi .....	214
<b>S.S.Yakubov</b>	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi .....	218



UO'K: 299.53

**MUSOXONXOJA DAHBIDIY ASARLARIDA XOJAGON-NAQSHBANDIYA  
TA'LIMOTIDAGI G'YOYALARNING QIYOSIY TAHLILI  
(2-qism)**

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИДЕЙ УЧЕНИЯ ХОДЖАГОН-НАКШБАНДИЙ В  
ТВОРЧЕСТВЕ МУСОХАНХОДЖИ ДАХБИДИЙ**

**COMPARATIVE ANALYSIS OF IDEAS IN THE KHOJAGON-NAQSHBANDIY DOCTRINE  
IN THE WORKS OF MUSOKHANKHOJA DAHBIDIY**

**Yuldashxodjaev Haydar Hashimhanovich** 

Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi,

**Annotatsiya**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining yirik vakili Musoxon Dahbidiy tomonidan naqshbandiya ta'lomitidagi rashhalarning taliqin etishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqida so'z boradi. Dahbidiy o'z asarlarida Naqshbandiya ta'lomitidagi "sayr", "majzub", "jazba", "zikr", "rashhalar" masalalari keng yoritilgan. Shuningdek pirlilik-shayxlik maqomi mutasavvif alohida e'tibor qaratgan jihatlardan bo'lib, u bu darajani "eng mukammal maqom" deydi.*

**Annomsatsiya**

*В данной статье рассматриваются своеобразный подходы видного представителя ордена Накшбандия-Муджаддиия Мусахана Даҳбиди к толкованию рашахат в учении Накшбандия. В своих трудах Даҳбиди подробно освещал вопросы «сайр», «маджзуб», «джазба», «зикр» и «рашахат» в учении Накшбандия. Статус пир-шеиха также является одним из аспектов, которому учёный уделяет особое внимание, и он называет этот уровень «самым совершенным статусом».*

**Abstract**

*This article examines the unique approaches of a prominent representative of the Naqshbandi order, Mujaddidi Musakhan Dahbidi, to the interpretation of rashahat in the Naqshbandi teachings. In his works, Dahbidi has covered in detail the issues of "sayr", "majzoob", "jazba", "dhikr" and "rashahat" in the Naqshbandi teachings. The status of pir-sheikh is also one of the aspects that the scholar pays special attention to, and he calls this level "the most perfect status".*

**Kalit so'zlar:** hadis, shariat, sufiy, irfon, Xoja Yusuf Hamadoni, Abu Bakr Kalobodi, nihoya, bidoya, nafs, mushohada, tajalliy

**Ключевые слова:** предания, шариат, суфий, ирфан, Ходжа Юсуф Хамадани, Абу Бакр Калабади, конес, начало, душа, наблюдения, преображение.

**Key words:** hadeeth, sharia, sufi, irfan, Khoja Yusuf Hamadani, Abu Bakr Kalabadi, end, beginning, soul, observations, transformation..

**KIRISH**

Biyuk allomalarmizning ilmiy-nazariy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish yoshlarni etuk shaxs sifatida shakllanishida hamda ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun "biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"[1].

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'lomitdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

**To'rtinchi. Xilvat dar anjuman.**

Bu shunday anjumanki, u tafriqa (o'zigarish), bo'linish, ikkinchi bir sifat o'zgarishiga ko'chish paytidir. Bunda Xudoni izlagan solik o'zi talab qilgan (Xudo) bilan botiniylik yo'lida xilvat tutgan bo'ladi. Tashqi tafriqa (farqlanish) ichki (botiniy) hujraga yo'l topmaydi, ya'ni Allohdan boshqa narsa tolib qalbiga yo'l topmaydi.

**Bayt:**

Az birun dar miyon bozaram,

## FALSAFA

Va-z darun xilvatiy-st bo yoram.

Ma'nosi:

Tashqaridan qaraganda bozor o'rtasidaman,  
Ichkaridan qaraganda esa yorim bilan xilvatdaman.  
Ko'nglim yorda, o'zim bozorda.

Bu ma'nni ibtidoda takallufli (vositali) va intihoda betakalluf (bevosita)dir. Chunonchi hazrati Xoja (qaddasallohu sirruhu)dan so'radilar. Tariqangizning binosi (sharti) nima. Aytdilar. Anjumanda xilvatdir.

Zohirda (ko'rinishida) xalq bilan va botinda Haq bilan.

Fard.

Az darun so' oshnou va-z birun begonavash,  
Inchunin zebo ravish kam mibuvad andar jahon.  
Ichkaridan oshnoyu tashqaridan begonaga o'xshash.  
Bunday chirolyi ravish dunyoda kamdan-kam bo'ladi.

Haq subhonahu aytadi:

[رَجُلٌ لَا تُلِيهِمْ تِجَارَةٌ وَلَا يَبْيَعُ عَنْ نِكْرِ اللَّهِ وَإِقَامِ الصَّلَاةِ وَإِيَّاهُ الرَّكَأَةُ يَخْفُونَ بِئْمًا تَتَلَبَّبُ فِيهِ الْفُؤُوبُ وَالْأَصْنَافُ] [2](37)

Ma'nosi: "Bir kishilarki, ularni tijorat ham, oldi-sotdi ham Allohnning zikridan, namozni to'kis ado etishdan va zakot berishdan chalg'ita olmas. Ular qalblar va ko'zlar iztirobga tushadigan Kundan qo'rqlarlar" [3].

Bu borada buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan olingen quyidagi baytni keltirish bilan cheklanamiz:

"Musofir bo'l, ammo Vatan ichra bo'l,

Tila xilvatu anjuman ichra bo'l". [4]

Musoxon Dahbidiy keltiradi: "Xo'ja Avliyoi Kabir (quddisi sirruhu) debdurlar: Anjumanda xilvat shuki, zikrdagi ishtig'ol (mashg'ullik) va istig'roq (g'arq bo'lish, sho'ng'ib ketish) shunday bir darajaga etadiki, agar bozorga kirsa, dil haqiqati uzra zikrning istilosiga sababli u erda hech qanday gapni va ovozni eshitmaydi. Hazrati Eshon debdurlar. Jiddu jahd va ehtimom bilan zikrga mashg'ul bo'lganlik sababli besh-olti kun ichida shunday martabaga etishadiki, odamlarning barcha ovozlari va hikoyatlari unga zikr bo'lib ko'rindi". [5]

Beshinchchi. **Yod kard**. Bu til bilan qalb zikridir. Haq subhonahuni zikr qilish bandaga tavfiqni o'rgatadi. Zikrning martabalari quyidagicha. Ya'ni til zikri, dil zikri, ruh zikri, sir zikri, xafiy zikri va axfo zikri. [5]

Musoxon Dahbidiyning bu xususdagi fikrlari dissertatsianing 2.2 bo'limida batafsil keltirilgan.

Oltinchi. **Bozgasht** (qaytish) ya'ni har safar (qachon)ki, til bilan yo dil bilan zikr aytsa, orqasidan. Ey parvardigormi, maqsudim sensan va rizoyim sensan, deydi Agar mutbadiy (boshlovchi solish) zikr bidoyasida bozgasht kalimasiga o'zida ishonch topmasa ham uni tark qilmasin, tadrij asnosida unda sidq (ishonch) alomatlari paydo bo'lgusidir. [5]

Yettinchi. **Nigoh dosht** (Ehtiyyotkorlik) Bu xotira maroqabasidan iboratdir. Chunonchi bir damda necha marta Tayyiba kalimasini aytsa, uning xotiri boshqa narsalarga ketib qolmasin. Mavlono Sa'diddin (qaddasi sirruhu) bu so'z ma'nosi borasida debdurlar.

Bir soat va ikki soat o'tsin. Ikki soatdan ortiq qancha miqdor tuyassar bo'lsa, o'z xotiriga qarasin (nigohini qaratsin)ki, o'ziga narsa uning xotiriga yo'l topmasin. Xazrat Mavlono Qosim alayhi-rahmah Xoja Ahror (qaddasallohu ruhahu) as'holalarining ulug'laridan edilar, aytar edilarki, nigoh doshtda u kishi shu darajaga etgan ediki, erta tongdan to choshtgacha dilni ag'yor xuturidan saqlay olar edi. Shuncha vaqt davomida uning amalidan dunyo tashvishlarining vasvasa-chalg'itish quvvati bekor bo'lar, Alloh taoloning zikridan boshqa narsalar vasvasasi unga ta'sir qilolmas edi. [5]

Sakkizinchi. **Yod dosht**.

Bundan maqsad, zavq yo'lida Haq subhonahudan ogoh bo'lishning davomidan iboratdir. Ba'zilar bu iboratga beg'iybat huzurdir deb baho beradilar. Va ahli tahqiq nazdida Haq shuhudi istilosidan bir ko'rinishdir. Hubbu zotiy, ya'ni Haqqa muhabbat tufayli dilda hosil bo'ladigan zavq natijasidir.

Bilmoq kerakki, soliq tariqat va tasbih paytida ekan, u haqiqat va huzurga payvasta emas (yetisha olmagan), balki yodkard maqomidadir.

Fard:

Doim hama jo bo hama kas, dar hama hol.

Midor no'ho'fta chashmu dil jonibi yor.

Ma'nosi.

Doimo hamma erda, kim bilan birga bo'lsang-da,  
Hamma holda ko'ngil ko'zini yor tomon tikkan holda tut.

Fard:

Doram hamajo bo hama kas dar hama hol

Dar dil zi tu orzu-u va-z diyda xayol.

Chunonchi Xoja Ahror (qaddasallohu ruhahu) ushbu to'rt kalimaning sharhida shunday iborani eslatibdilarki, yodkard zikrda takallufdan iboratdir va bozgasht haq subhonahu qaytishdan iboratdir. Shu vajh bilanki, har safar Tayyiba kalimasini aytganda, ketidan ko'ngildan andisha qilib, Ey parvardigorm, maqsudim sensan va rizoim sensan degay. Nigohdosht esa gapsiz, tilsiz ushbu ruju'ni muhafaza qilishdan iboratdir. Yoddosht esa nigohdoshtagi mustahkam turishdan iboratdir[5].

### To'qqizinchi. Vuqufi zamoni.

Tariqat akobirlari debdurlarki, vuqufi zamoni ish bajaruvchi va yo'l yurguvchidir. Va u shundan iboratki, banda o'z ahvolidan voqif bo'lgay. Har zamonda uning sifati va holi qanaqa. Shukrga loyiqli yo uzrga loyiqli. Hazrati Mavlono Ya'qub Charxiy (quddasa sirruhu) debdurlarki hazrati Xojai Buzruk quddasa sirruhu menga dar holi qabz (qabz holida) istig'forga buyurdilar.

Va bast holida shukrga buyurdilar. Bu ikki holga rioya kilish vuqufi zamoniyidir. Solik ishning ruyobga chiqishini vuqufi zamoniya soat bilan ulchaydilar. Toki uni topgan kishi o'z nafsidan voqif bo'lsinki huzurga tomon ketyaptimi yo g'aflatga tomonmi. Agar nafsga bino qo'ysa bu ikki sifatni topguvchilardan bo'lmaydi. Ba'zi sufiy nazdida vuqufi zamoni muhosabadan iboratdir. Muhosaba shuki xar bir soatda nimalarni boshdan kechirgan bo'lsak muhosaba qilamiz va amalni sirdan olamiz.[5]

Demak, Dahbidiyning talqiniga ko'ra zamon, vaqt, umr inson uchun eng muhim narsalardan bo'lib, solik doimiy ravishda o'z vaqtini nazorat qilib borishi kerak bo'ladi.

Tasavvufshunos olima Gulchehra Navro'zova o'z tadqiqotlaridan birida bu borada keltiradilar: "Vuqufi zamoni – inson o'zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganligidan ogoh bo'lishi, umr bir bor berilishi va inson uni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g'aflatda qolmas ligi, loqayd bo'imasligi, ogoh, hushyor, daxldor bo'lishi kerak degan maz mun-mohiyatni anglatadi. Hujviriy «Kashf ul mahjub» asarida vaqt ilmi haqida yozgan, Muhosibiy o'tgan vaqtini doimo hisob-kitob qilib turish lozim degan, Abduxoliq G'ijduvoniy «umr eng ulug' sarmoya, yo'qotilgan vaqt shu sarmoyaning behuda sarflanishi» deb uni asrash lozimligini vasiyat qilganlar. Orif Revgariy «Orifnama» asarida «Vaqt qilich kabi keskirdir» degan. Umuman tasavvuf ahli vaqtini qadrلagan. Xojagon ta'lomitida Yusuf Hamadoniy tomonidan kiritilgan «Hush dar dam» tamoyilida ham mazkur g'oya aks etadi. Ammo Bahouddin Naqshbandning xizmatlari shundaki, «Vuqufi zamoni» rashhasini nazariy jihatdan asoslab, Naqshbandiya tariqati amaliyotida joriy etdi. Vaqt falsafiy tushunchasi olamning atributi bo'lib, barcha ob'ektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar almashuvining izchilligini xarakterlaydi. Vaqt tushunchasi muhim falsafiy kategoriyalardan biri sifatida klassik fanda o'ziga xos va noklassik fanda o'zgacha talqin etil gan. Vaqt tushunchasi tasavvufiy ta'lomitda ham muhim sanalgan. Ilk tasavvufiy g'oyalarni nazariy tahlil etgan Hujviriy ilmlarni quyidagi xillari borligini yozgan: 1.Vaqt ilmi. 2.Asosiy va ikkinchi da rajali ilm. 3.Haqiqat ilmi. 4.Qonun ilmi. Hujviriyning ilmlar tasnididan ma'lum bo'ladiki, tasavvuf ahli ilmlar ichida «vaqt ilmi»ni muhim sanaganlar, vaqtini ilm sifatida ko'rib uni o'rganganlar, tadqiq etganlar va uni hayot uchun muhim deb bilganlar.[6]

Ilk tasavvufiy tariqatlardan biri bo'lgan muhosibiy tariqatining asoschisi Horis Muhosibiy muhosaba – vaqtini hisob-kitob qilish holati haqidagi tushunchani so'fiylik istilohiga kiritgan. Uning g'oyalarini Abdulkholiq G'ijduvoniy rivojlantirgan. «Maslak al-orifin» asarining 13-bobida Xojagon tariqati asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoniyning ta riqat maqomlari va inson ruhiy kamolotining bosqichlari haqidagi fikrlari yoritilgan. Ushbu bobda muhosaba tushunchasiga maxsus e'tibor berilgan: «Muhosaba har bir o'tgan vaqtning hisobidir». Abdulkholiq G'ij duvoniydan so'radilarki, «Muhosaba nima?». U javob berdi: «Muhosaba nafasni saqlashdir, toki u behuda o'tmasin». Ko'rinish turibdiki, Abdul xoliq G'ijduvoniy nafas tushunchasi bilan vaqtini bir ma'noda ishlatgan. Abdulkholiq G'ijduvoniy ustoz Yusuf Hamadoniyning «Hush dar dam» – har bir dam, on, nafasni asrash ogoh bo'lish, hushyor bo'lish o'gitini Xojagon tariqatiga tamoyil sifatida kiritadi va inson hayotining asosini nafasda deydi. Xuddi shu nafas ichida amal bor, vaqt bor, o'lim bor, hayot bor. Odam eng so'nggi

## FALSAFA

nafasini olayotganda, nafas qadrini to'liq anglaydi. Shuning uchun «Muhosabidan maqsad oxirgi nafasdir. Muhosaba nafasni nigohdosht, ya'ni saqlash bilan izohlanadi, toki u g'aflat bilan behuda o'tmasin», deydi Xojai Jahon. Muhosaba haqidagi g'oya Bahouddin Naqshbandda ham uchraydi. Naqshbandiya tariqatida ham oriflar kamoloti uchun mushohada, muhosaba va muroqaba asosiy shart deb qabul etilgan va Bahouddin Naqshband shuning ta'sirida vuqufi zamoni – har bir ondan ogoh bo'lish rashhasini kashf etgan. Muhosaba – oriflar ruhiy kamolining yo'lidir. Hazrat Bahouddin Naqshband bu yo'l – oriflarning Haqqa etish vositasini shunday izohlagan: «Muhosaba – o'tgan har bir soatimizni hisoblash va tekshirishdir. O'tgan har bir soatimiz, nafasimiz va zamonamiz huzur bilan o'tdimi yoki nuqson bilanmi, agar hammasi nuqson bilan o'tgan bo'lsa, qaytamiz va amalni avval boshdan boshlaymiz».

Hazrat Bahouddin Naqshband asoslagan bu tariqat ahli o'rtaida uning shunday fikri mashhur bo'lgan: «Musibatlar juda ko'pdir. Faqat eng buyuk musibat esa vaqtning foydasiz, bekorga ketishidir». Muhosaba vaqtida orif har bir nafasini nazorat qilishi va agar g'aflat bilan o'tgan bo'lsa bozgasht qilish kerak, ya'ni ishni qaytadan bo shlashi lozim deydi. Bahouddin Naqshband «Vuqufi zamoni» rashhasining asosida «hush dar dam» talabi turadi. Bahouddin «hush dar dam»ni Naqshbandiya ta'lli motiga asos sifatida qabul qilgan. U asoslagan Naqshbandiya tariqati ga «hush dar dam» rashha sifatida kirgan[6].

O'ninchi. **Vuqufi adadi.** U shundan iboratki, zikri nafiy adadida toqlik qoidasiga amal qilish ushbu tariqda mukarrardir. Vooqif bo'lsinlar toki har nafasda tok aytisinlar juft aytmasinlar. Xoja Buzruk kaddasallohu ruhahu debdurlarki qalbiy zikrda adadga rioya qilish xotirini jam qilish uchun kerakdir. Xojagonlar qudsiy kalomida uchraydigan "Falonchi falonchiga vuqufi qalbiydan shuncha adadni buyuribdilar" – degan gapdan murod qalbiy zikrda adadga sanoqqa rioya qilishdir.[5] Zikrni sanab aytadi, uchtadan qilib, to yigirma bittagacha toq-toq aytadi. Yigirma bir-natija mahalidir. Vuqufi zamoni shuki, "Illalloh" deyish paytida o'z dilini Xudoga hozir qiladi va shuningdek toq-toq aytib boradi. Bir nafasda yigirma bir marta aytgunicha. Yigirma bir natija mahalidir.[5]

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta'llimotidagi eng muhim xizmat laridan yana biri son haqidagi ilmni yaratib, inson kamolotiga oid ta'lli motning asosida qo'ydi. Bahouddin Naqshband «vuqufi adadi» degan rashha – hayotbaxsh o'gitni kashf etib, unga amal etish lozim dedilar. «Vuqufi adadi»-sondan, adaddan ogoh bo'lisdirdi. Bu ta'llimot asosida ikki tushuncha – kasrat – ko'plik va vahdat – yagonalik yotadi. Olamga nazar solganda borliqdagi barcha narsalar rang-barang va turlituman ko'rinsada, ular ning asl mohiyati bittadir. Bahouddin Naqshband birlik, yagonalik, ahad barcha narsalarda tajalliy etgan, aks etgan deydi. Abdurahmon Jomiyning «Sharhi ruboiyoti»da Bahouddinni «Vuqufi adadi» ta'llimi qui dagicha izohlanadi: Dar mazhabi ahli kashfu arbobi xirad, Sorist ahad dar hama afrodi adad. Garchi adad berun ast zi had, Lek dar suratu, dar modaash hast ahad. Mazmuni: Kashf ahli va xirad arbobi mazxabida, Barcha adatlarda ahad(birlik) namoyondir. Adadlar haddan ziyoda bo'lsalar-da, Lekin ularning surati va moddasi ahad – yagonadir. Demak, barcha borliqning asl mohiyati birta ilohiy birlik, ya'ni ahadi yatdir, demoqchi Bahouddin Naqshband. Bu mazmunda uning shunday fikri bor: Kasrat chu nek darnigori asli vahdat ast, Maro dar in shak nest, gar turo shak hast. Dar har raqam bingari az ro'i e'tibor, Gar suratash bubini, lek modaash yak ast. Mazmuni: Kasratga e'tibor bilan qarasang asli vahdatdir, Menda bunga shak yo'q, gar senda shak bo'lsa-da. Har bir songa e'tibor bilan qarasang, Surati turlichcha bo'lsa ham, asli bittadir. Butun olam yagona asosga ega degan fikr bilan Bahouddin Naqshband bu tun borliqni sevish, e'zozlab, unga muhabbat bilan munosabatda bo'lish lozim demoqdalar. Bahouddin Naqshband butun insoniyatni – uning dini, irqi, jinsi, millati, iqtisodiy mavqeiga qaramasdan ilohiy hilqat sifatida ko'rish, uni asrash lozim deb, barchani ahil, tinch, xotirjam, murosayu madorada yashashga undaydilar. Sonlar falsafasiga Pifagordan beri e'tibor berilgan bo'lsa-da, Bahouddin Naqshband vuqufi adadiyni laduniy ilmnинг ibtidosi deb qaraydi va sondan ogoh inson laduniy ilm sohibi bo'lishi mumkinligini isbot etadi. Bahouddin Naqshband: «Vuqufi adadiy laduniy ilm martabasining avvalidir», deb aytgan. «Ladun» – arabcha so'z bo'lib, oldidan, yonidan degan ma'noni anglatadi. Qur'oni Karimda bu so'z takrorlanib turadi. Laduniy asosan Ollohning oldidagi, yonidagi ilm ma'nosini anglatadi. Laduniy ilm deganda Ollohgagina bor bo'lgan va uning yonida bo'lgan, u istagan kishiga, istagan joy va vaqtida beradigan ilm tushuniladi.[6] «Farhangi zaboni tojik»da laduniy ilm haqida shunday deyilgan: «Laduniy – tabiatda zehnning ishtirokisiz, jiddu jahd qilmasdan, Olloh tomonidan ato eti ladigan, Alloh bergen ilmdir». Buni hazrat Bahouddin Naqshband quyida gicha ta'riflagan: «Laduniy ilm

shunday ilmdurkim, qurb ahliga ilohiy ta'lif va rabboni y tafhim ila ma'lum va mafhum bo'ladi. Bu ish aqlning dalili va naqlning shohidisiz amalga oshadi». [6]

O'n birinchi. **Vuqufi qalbiy.** Bu shundan iboratki solikning tafakkuri dildan voqif bo'ladi. Unga dilga tavajjuh va nazarning tikkan bo'ladi zikrdan qat'i nazar toki tafriqa unga yo'l topmasin va mosivo naqshlarni munaqqash bo'lmasin. Aytibdurlarki dil bekor turmaydi yo mosivolikka qo'shilib ketadi. Yo matlubga qarab intiladi. Odam uyg'oq bo'lsa zohiriy xoslar olam xabarlarini dilga etkazadilar va tafriqada tutadilar. Uyquda bo'lganda esa botiniy xoslar inkor qiladilar va dilni parishon holda tutadilar. Dil sohibi o'z diligiga tavajjuh bilan boqsa va olam xabarlarini dilga etishiga yo'l kuymasa bu payt nihoiy maqsadiga erishadi. Uning haqidagi bekorlik mafquddir. Bu tarafdan ma'mnun bo'lsa u tavajjuhdan boshqa chora topolmaydi.

O'sha tarafga zikr va mazkur tavajjuhga ehtiyoj topmaydi. Dilni dushmandan qaytaradi va do'stni oxtarishga hojat qolmaydi. Chunki oynadan zangni ketkizsang, o'zingdan boshqani ko'sratmaydi. Hazrati shayx Ma'sum(qaddasa sirrahu) o'z qudsiy kalimotlarining ba'zisida yozganlarki, vuqufi qalbiy dilning janobi Haq subhonahuga ogohligi va tayyor turishidan iboratdir. Chunki dilning Haq subhonahudan boshqaga bog'liqligi bo'lmaydi. Boshqa bir o'rinda aytubdilarki, zikr paytida mazkurga irtibot va ogohlilik shardir. Bu ogohlilikning shuhudi vusul va vujudi vuqufi qalbiy deb ataydilar. Ikkinci ma'nosi shuki, zokir dilidan voqif bo'ladi, yani zikr asnosida mutavajjh bo'lginki, uni majoyiz dil deb ataydilar va ko'krakning chap tarafiga voqedir. Natijada zikr va mafhumi zikrdan g'ofil va zohil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.[5]

Mavlono Yaqub Charxiy keltiribdurlarki hazrati shoh Naqshband qaddasallahu ruhahu aytar edilarki baland zikr va samodan hosil bo'ladi huzur va zavq davomli bo'lmaydi. Vuqufi qalbiydag'i davomlilik jazabaga tortadi va ishi jazaba bilan tamomlanadi. Jazaba halol luqmasiz tuyassar bo'lmaydi. Luqma yo halol bo'limas ekan maqsud hosil bo'lmaydi. Ba'zilar biz daryo bo'lganmiz, bizga ziyon qilmaydi debdilar. Yolg'on aytibdilar, ular najas daryosi bo'libdilar (najas-iflos). Zeroki payg'ambar (S.A.V) ehtiroy (hazar) qildilar va go'shti mag'sub (g'asb, zo'ravonlik bilan topilgan)go'shtni emadilar.

Alloh taolo buyurdi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَأْكُلُوْا أَمْوَالَكُمْ بِإِنْتَهَىٰ [2]

Ey, iymon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan emang[7]

yani musabbabdanki shariat hukm qilmagan (buyurmagan)dir va sahobi Raziyallahu anhum namoz va ro'zaning ko'pligiga luqmonga qaratanday ehtimom qaratmagandirlar. Rasulullohdan shunday hadisni keltiradilar Al' ibodatu ashratu ajzoin tis'atu minho talabul-haloli val boqiyhi soirul -ibodati ya'ni Alloh taologa bandalik qilmoq o'n juzdan ibodatdir. Shundan to'qqizi halolni oxtarishdir va qolmishi boshqa ibodatlardir. Ulug'lardan ba'zilari aytibdurlar: "As-sufiyyu huval koinu val boinu". Ya'ni so'fiy shunday kishidirki u pinhon va oshkor ya'ni botinda haq subhanahu va taolo bilan mashg'ul bo'ladi va zohirda xalq bilan[5].

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Musoxon Dahbidiyning naqshbandiya tariqatidagi rashhalarni o'ziga tarzda sharhlagan va ularga yangicha talqin berishga harakat qilgan. U, avvalo, Naqshbandiya tariqatining o'zga tariqatlardan mukammalroq ekani, boshqalardan ustunligi ko'rsatishga uringan va bu fikrlarini manbalar asosida isbotlab bergen. Darhaqiqat, naqshbandiya tariqatining islom olamida keng tarqalishi, va butun dunyo muslimonlari e'tiborida bo'lgani uning g'oyalarining xalqchil, inson kamoloti uchun juda zarur ekanidadir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // - Toshkent, 2017. Xalq so'zi. № 196 (6860).
2. Qur'oni karim, "Nur" surasi, 37-oyat., Qur'oni karim, "Niso" surasi, 29-oyat.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. "Hilol nashr", Toshkent, 2019. 4-juz. -B.162..
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nasriy bayoni bilan. T. 1991. -B 721.
5. Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-haqā'iq. – T.: FA SHI. Qo'lyozma, inv № 6576/I. – V. 28A-28B.
6. Gulchehra Navro'zova. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021. –B.98.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. "Hilol nashr", Toshkent, 2019. 1-juz. –B.506.